

ERIX MARIYA REMARKNING «G'ARBIY FRONTDA O'ZGARISH YO'Q» YOXUD «ESSIZGINA YOSHLIGIM» ASARI BADIY TAHLILI

Mustafoyeva Charosxon Jamoliddin qizi

Navoiy davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20488003>

Annotatsiya: Mazkur maqola orqali nemis yozuvchisi Erix Mariya Remarkning «G'arbiy frontda o'zgarish yo'q» asarining syujeti bilan tanishamiz. Yozuvchi foydalangan syujet orqali asar to'la to'kis o'quvchiga yetib boradi. O'zi qatnashgan shavqatsiz urush voqealari bayoni syujet orqali namoyon bo'lgan. Syujet asarning ildizi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: syujet, avtobiografik syujet, xronikali syujet, syujet unsurlari, ekpozitsiya, konflikt, yechim, kulminatsiya, tashqi konflikt, ichki konflikt.

Erix Mariya Remarkning «G'arbiy frontda o'zgarish yo'q» (nemischa: «Im Westen nichts Neues») asari Birinchi jahon urushining dahshatlarini nemis askarlari ko'zi bilan tasvirlaydigan, urushga qarshi kuchli ruhdagi roman hisoblanadi. Asar 1929-yilda nashr etilgan va ko'p o'tmay jahon adabiyotining klassik asarlaridan biriga aylangan.

Roman nemis o'rta maktab o'quvchisi Paul Bäumer (Paul Boymer) hikoyasi orqali voqealarni yoritadi. Paul va uning sinfdoshlari, millatchilik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan professor Kantorekning chaqiriqlariga ishonib, urushga ko'ngilli bo'lib ketishadi. Ular urushni qahramonlik va sharafligini sarguzasht deb tasavvur qilishadi, ammo frontga kelganlaridan so'ng haqiqat ularni shafqatsizlarcha yuzma-yuz qiladi.

Har bir badiiy asar syujet va kompozitsiyadan tashkil topgani kabi bu asar ham Erix Mariya Remarkning o'zi qatnashgan birinchi jahon urushi haqida shu sababli ham yozuvchi avtobiografik syujetdan foydalangan. Umuman, syujetlilik badiiy adabiyotning xos xususiyatlaridan biri bo'lib, barcha turdagi badiiy asarlarda ham syujet mavjuddir. Faqat shunisi borki, har bir turda, janrda syujet o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. (D.Quranov). Asar voqealari yozuvchining hayot yo'lidan olingan, shuningdek ayrim obrazlar va voqealar esa yozuvchi tomonidan qo'shilgan. Remark o'z asarida an'anaviy qahramonlik dostonlari yoki sarguzasht romanlaridan butunlay farq qiladigan syujet qurilishidan foydalanadi. Bu syujet murakkab voqealar zanjiri emas, balki episodik va xronologik tarzda rivojlanuvchi syujetdan iborat. Xronikali syujetda voqealar orasida vaqt munosabati (A voqea yuz berganidan so'ng B voqea yuz berdi) yetakchilik qilsa, konsentrik syujet voqealari orasida sabab-natija munosabati (A voqea yuz bergani uchun B voqea yuz berdi) yetakchilik qiladi. Kelib chiqishiga ko'ra xronikali syujetlar qadimiyroq sanaladi. Xronikali syujet qahramon taqdirini davriy izchillikda, uning xarakterini rivojlanishda ko'rsata olishi jihatidan ustunlik qiladi. (D.Quranov)

Asarning syujet tahlili:

Syujetning rivojlanishi nisbatan sekin va og'ir kechadi. Katta, qahramonlik janglari tasvirlanmaydi, aksincha, kundalik transheya hayotining monotonligi, dahshati va asta-sekinlik bilan askarlarning ruhiy parchalanishi ko'rsatiladi. Janglar, gaz hujumlari, ochlik, kasalliklar – bularning hammasi kutilmaganda sodir bo'ladi va har safar syujetni bir oz keskinlashtiradi, ammo umumiy fon – urushning tinimsiz, zerikarli va halokatli oqimi – o'zgarmaydi.

Asarda yozuvchi tashqi va ichki konfliktni o'z o'rnida qo'llagan.

Tashqi konflikt— urush va inson deb olsak, qahramonlar boshqa inson bilan emas, urushning o’zi bilan, uning shavqatsiz qonunlari va har qadamidagi qurbonlari, o’lim tahdidi va eng muhimi ma’naviy azablari bilan kurashgan.

Ichki konflikt— asardagi har bir qahramonning o’zi bilan o’zining kurashidir. Paul va uning do’stlari urushning ularga majburan yuklagan hayvoniy instinktlari va ularning ichki insoniyligi o’rtasida kurashishadi. Ular o’zlarining insoniyliklarini, go’zallikka bo’lgan intilishlarini, his-tuyg’ularini saqlab qolishga harakat qilishadi, ammo urush ularni asta-sekin «o’lik mashinalar»ga aylantiradi. Yana ular urushdan omon qaytishsa ham ular jamiyatga qo’shilolmasliklarini ta’kidlaydi bunga sabab esa ularning ruhiyati sindirilganidir.

Syujet unsurlari:

Ekspozitsiya—asar boshlanishi. Asar ular yaqinda jangga kirishi, qanday urushga kelib qolgani, Paulning yaqin do’sti Kemmerixning o’limi bilan boshlanadi. Asar boshida yozuvchi bizni asardagi obrazlar va voqealar boshlanish joyi haqida ma’lumot beradi.

Voqealar rivoji—bu kulminatsiyaga tayyorgarlik ya’ni kulminatsiyagacha bo’lgan asosiy voqealardir. Asarning voqealar rivoji esa Paulning do’stlarining birin ketin halok bo’lishi. Kemmerix, Layer, Haye, Myuller va Tyadenning o’limi. Har bir voqea qahramonni ruhiyatini parchalab boradi.

Kulminatsiya—voqealarning avj nuqtasi. Asar kulminatsiyasi esa hali 18-19 ga kirib ulgurmagani o’smirlarning hali bitta odam o’ldirmasdan o’lib ketish sahnasi, Paulning eng yaqin do’sti Katcheniskiyning o’limi.

Yechim— asar voqealari davomida minglab, millionlab jangchilar halok bo’lib kurashsa ham, oxirgi xabar «G’arbiy frontda o’zgarish yo’q» bo’ladi. Paul Boymerning urush tugash arafasidagi o’limi o’quvchi uchun katta yo’qotish bo’ladi.

Xulosa. Erich Mariya Remarkning «G’arbiy frontda o’zgarish yo’q» asari Birinchi jahon urushining dahshatini, «yo’qolgan avlod»ning fojiasini va insoniylikning urush sharoitida qanday sinovlarga duch kelishini realistik va ta’sirchan tarzda ko’rsatib bergan badiiy shoh asardir. U nafaqat o’z davrining, balki barcha davrlarning urushga qarshi eng kuchli asarlardan biri bo’lib qoladi, o’quvchini urushning insoniyatga olib kelgan azoblari haqida chuqur o’ylashga majbur qiladi. Asar syujeti yozuchininng mahorati orqali namoyon bo’lgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Remark, E. M. (1929). *Im Westen nichts Neues* (G’arbiy frontda o’zgarish yo’q).
2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O’qituvchi, 2005.
3. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
4. Hotam Umurov. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2004.
5. Ziyonet ta’lim portali
6. O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi
7. Ziyoz elektron kutubxonasi